

YERYONG'OQNI TURLI XIL ME'YORDA O'GITLASHNI SAMARADORLIGI

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti o'qituvchisi, q.x.f.n. Begimqulov Ch.R

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti magistranti Xaitov I.N

Annotatsiya: O'zbekistonda yeryong'oq ekinidan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda mahalliy yuqori hosilli navlarni tanlash, agrotexnik tadbirlarni o'z muddatida sifatli o'tkazish, o'g'it me'yorlarini to'g'ri tashkil etish muhim omil bo'lib hisoblanadi. Yeryong'oqdan yuqori hosil olishda mineral o'g'itlardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: yeryong'oq, urug', novda, ekish, muddat, nav, oziqlantirish, dukkak, o'sish, poya, hosildorlik.

Yeryong'oq moyli va oziq ovqatga ishlatiladigan qimmatli o'simlik bo'lganligidan Osiyo, Amerikadagi tropik hamda subtropik mamlakatlarda, shuningdek, Afrikada ko'p tarqalgan O'zbekistonda esa ko'pincha tomorqa yerlarda uchrashi mumkin.

Yeryong'oq tropik va subtropik mintaqalarda etishtiriladigan dunyodagi eng mashhur ekinlardan biridir. Sababli tarkibida yuqori protein, yog', yog' kislotalari, uglevodlar, vitaminlar va minerallar mavjud, yeryong'oq yuqori qiymat va ozuqaviy qiymati yuqoridir. Tarkibida 45-55% yog', 20-25% oqsil, 16-18% uglevod va 5% mineral moddalar mavjud.

Tajriba dalasida olib borilgan fenologik kuzatuv ishlari va mineral o'g'itlarning yeryong'oq ekiniga o'sib rivojlanishiga ta'siri

Yeryong'oq ekinining dala sharoitida qanday rivojlanishi, uning o'sib rivojlanishi uchun mineral o'g'itlarning me'yorini bevosita kuzatib bordim. Dastlabki fenologik kuzatuvlarni avgust oyining birinchi o'n kunligida olib bordim. Sababi iyul oyida unib chiqish jarayonlari davom etganligi sababli fenologik kuzatuvlarni olib bora olmadim. Albatta har bir ekinning o'ziga xos biologik xususiyatlari mavjud. Shu jihatlarni e'tiborga olib, biologik xususiyatlarini o'rganib chiqdim. Iyul oyining dastlabki o'n kunligida fenologik kuzatuvlarni olib bora olmaganim sababli, iyul oyining ikkinchi o'n kunligida yeryong'oq ekinining o'sishini kuzatib bordim. (I-Jadval)

I-jadval

Yeryong'oq poya balandligiga o'g'itlash me'yorining ta'siri

Mineral o'g'itlar me'yorini, kg\ga	01.VII	15.VII	01.VIII	15.VIII	01.IX	15.IX	
Nazorat		7	20	28	42	44	
N ₈₀ P ₁₆₀ K ₁₂₀		9	27	36	48	51	
N ₉₀ P ₁₇₀ K ₁₃₀		1	27	38	47	50	
N ₁₀₀ P ₁₈₀ K ₁₄₀		0	1	28	37	48	51

Quyidagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, iyul oyining oyining 15-sanasida olib borilgan kuzatuv ishlaridan shu ma'lum bo'ldiki, nazorat ya'ni o'g'itlanmagan variantda o'sib rivojlanish birmuncha orqada ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu farqlar variantlar bo'yicha turli xil ko'rsatkichlarni berdi. Bu ko'rsatkich o'rtacha nazorat variantda 7sm 2-variantda 9sm 3-variantda esa ozroq farq qilib I Ismni,

№	Mineral me'yori,kg/ga	o'g'itlar	O'suvDavri, kun	O'simlik bo'yi(sm)	Novdalar soni	Gullar Soni, dona
---	--------------------------	-----------	--------------------	-----------------------	---------------	-------------------------

Yeryong'oq o'sishi va rivojlanishi mineral o'g'itlar me'yoriga bog'liqligi. (2022y.)

(I-avgust holatiga ko'ra) 2-jadval

4-variantda esa 10smni tashkil qildi. Yana poya balandligini kuzatish maqsadida oradan 15 kun o'tkazib, yana kuzatuv olib bordim. Bu fenologik kuzatuvda faqatgina poya balandligidan tashqari guli va novdalar soni ham kuzatdim. Ushbu vaqt davomida bir marta o'g'itlash ishlari 30%i ham olib borildi. Shuning evasiga o'sish jarayonini jadallashgani ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, boshqa agrotexnik tadbirlar ham olib borildi. Bu jadvaldan ko'radigan bo'lsak, poya balandligi nazorat variantda 20sm, 2-variantda esa 27smni, 3-variantda ham 27 smni, 4-variantda 28 smni tashkil qildi. Novdalar soni ham variantlar bo'yicha biroz farq qilganini ko'rishimiz mumkin. 2-jadval

Ushbu ko'rsatkich, I-variantda 4 dona, 2-variantda esa 5 donani, 3-variantda esa 6 dona, 4-variantda 5 donani tashkil etdi. Bu novdalar tashqari yana endigina rivojlanayotgan novdalar ham mavjud. Gullash (85%) jarayoni ham kuzatildi. Gullarning hosil bo'lishi ham bir-biridan farq qiladi. Gullar soni I-variantda 10 dona, 2-variantda 18 dona, 3-variantda 19 dona, 4-variantda 19 donani tashkil qildi. Oradan 15 kunlar o'tib poyalarni balandligini kuzatdim. Bu vaqtda yana variantlar bo'yicha o'g'itlar (70%) berildi. Natija yana ekinida bir qator o'zgarishlarga olib keldi. 3-Jadval

3-jadval

Yeryong'oq poya balandligiga o'g'itlash me'yoringa ta'siri

№	Takrorliklar	Variantlar			
		I-variant (Nazorat)	2-variant (N ₈₀ P ₁₆₀ K ₁₂₀)	3-variant (N ₉₀ P ₁₇₀ K ₁₃₀)	4-variant (N ₁₀₀ P ₁₈₀ K ₁₄₀)
	I	28	36	38	37
	II	30	35	37	38
	III	28	36	38	36
	IV	29	37	38	37

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, avgust oyining ikkinchi o'n kunligida ekinning poya balandligini kuzatdim. I-variantda poya balandligi 28sm, 2-variantda 36sm, 3-variantda esa 38sm, 4-variantda 37smni tashkil etdi. Novdalar ham yaxshi rivojlandi. Bunda ham ozroq farq bo'ldi.

Keyingi fenologik sentabr oyining birinchi sanasida o'tkazdim. Bunda ekinlar anchagina o'sib rivojlandi. Ekinning poya balandligi I-variantda 42sm, 2-variantda 48sm, 3-variantda 47smni, 4-variantda esa 48smni tashkil qildi. Bu jadvaldan ko'radigan bo'lsak, 2-variant va 3-variantda nisbatan

rivojlanish biroz oldinroqda bo'ldi(4-Jadval).Bundan tashqari, novdalar soni ham bir-biridan biroz farq qildi.Variant bo'yicha I-variantda 5 dona, 2-variantda esa 6 dona, 3-variantda 7 dona, 4-variantda 6 donani tashkil qildi. Ushbu jadvalni ko'radigan bo'lsak, novdalar bo'yicha 3-variantda biroz ko'pligini ko'rishimiz mumkin. Har bir variant bir-biridan ozroq bo'lsa, ham farq qildi.

Mineral o'g'itlar me'yori, kg/ga	O'suv Davri, kun	O'simlik bo'yi(sm)	Novdalar soni
I	2	3	4
O'g'itlanmagan	85	42	5
N ₅₀ P ₁₆₀ K ₁₂₀	87	48	6
N ₉₀ P ₁₇₀ K ₁₃₀	88	47	7
N ₁₀₀ P ₁₅₀ K ₁₄₀	88	48	6

Mineral o'g'itlar me'yori, kg/ga	O'suv Davri, kun	O'simlik bo'yi(sm)	Novdalar soni
I	2	3	4
O'g'itlanmagan	85	42	5

Yeryong'oq o'sishi va rivojlanishi mineral o'g'itlar me'yoriga bog'liqligi. (2022y.)(I-sentabr holatiga ko'ra)

4-jadval

Yuqoridagi fenologik kuzatuvlar xulosa qilib turli xil me'yordagi mineral o'g'itlar me'yori yeryong'oq ekini hosili, o'sib rivojlanishiga ta'sirini ko'rishimiz.Bu mineral o'g'itlarni qo'llab, hosildorlikni birmuncha oshiradi. Insonlarga sifatli oziqa bilan ta'minlashga yordam beradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O.Yaqubjonov, S.Tursunov "O'simlikshunoslik" Toshkent-2008.
- 2.X.N.Atabayeva, J.B.Xudayqulov "O'simlikshunoslik" Toshkent-2018.
- 3.M.Karimov "O'g'it qo'llash tizimi" darslik Toshkent-2020.
- 4.Internet ma'lumotlari.